

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

FORMATION OF COMMUNITY CENTERS OF RURAL POPULATION AREAS AND ORGANIZATION OF A NETWORK OF SERVICE INSTITUTIONS

Assoc, Samarkand State Architecture and Construction University

M. Khudoyarova

Samarkand State Architecture and Construction University

O'. Mamatkulov, J. Annakulov, A. Takhirov

Annotatsiya: Qishloq hududlarini arxitektura loyihaviy tashkil qilishda, uning jamoat markazini shakllantirish madaniy - maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarining tarkibiga, shaharsozlik normativlari bo'yicha aniqlanadigan hajmiga bevosita bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Jamoat markazlarini qishloqlararo, qishloq va mahalla markazlari asosida bosqichma – bosqich, funktsional jihatdan oqilona tashkil etilishida uni aniq belgilangan vazifalarga xizmat qiluvchi ma'muriy, madaniy-ma'rifiy, savdo-maishiy, ta'lim muassasalari, dam olish va sport inshootlari bo'yicha yagona rejayiy-hajmli zona yaratilishi, markazning kompozitsion tizimining uzviy bog'lanishi, xizmat ko'rsatishning qulay va oqilona tashkil etilishi, markaz funktsional vazifalariga muvofiq aniq zonalashtirilishi, hajmlar talqinidagi asimmetriyalik, shakllar, kontur va landshaft tuzilishidagi uyg'unlikka rioya qilinishi, arxitektura, tabiat va san'at sintezidan unumli foydalanishi zarurligi batafsil ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: jamoat markazlari, madaniy – tomosha hududi, ma'muriy hudud, savdo va maishiy hudud, dam olish hududlari, tarmoqlar, kompozitsiya, funktsional zonalar.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligini sanoat asosida yuritishga o'tish, transport va aloqa vositalarini, kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, aholiga madaniy maishiy xizmat kursatish sohasidagi ilmiy texnik taraqqiyotning qishloqlararo xizmat ko'rsatishning yagona tizimini yaratishni talab etadi. Qishloq aholi punktlari hududida shakllanayotgan joylashuvning yangi tizimida bunday o'zgarishlarni amalga oshirish real voqelik sifatida qabul qilinmoqda. Joylashuvning bunday tizimi shahar va qishloq uchun yagona joylashuv tizimining tarkibiy kismi hisoblanadi.

Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish qishloq aholi punktlarini o'zgartirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunda qishloq jamoat binolarining rejali tuzilmasi va tipologiyasini qishloqlararo xizmat ko'rsatishning yagona tizimi–ijtimoiy, shaharsozlik, kompozitsion nuqtai nazarda ratsional bo'lgan qishloqning jamoat markazini tashkil qilish asosida shakllantirish ko'zda tutiladi.


Zamonaviy sharoitda aholi punktlarining jamoat markazlari aholi o'rtasidagi aloqa, madaniy tadbirlar, savdo korxonalarining joylashuvi, ma'muriy tuzilma, ijtimoiy va maishiy maqsadlar uchun mo'ljallangan arxitektura va rejalashtirish tuzilmasining majburiy elementi hisoblanadi.

Qishloq manzilgohlarining jamoat markazlari tizimini tuman rejalashtirishning sxema va loyihalari, qishloq xo'jalik korxonalari hududlarining me'moriy rejaviy sxemalariga bog'lik holda kuyidagi tarkibda ishlab chikish joiz bo'ladi: qishloqlararo xizmat markazi vazifasini bajaruvchi jamoat markazi; mahalla markazlari.

Qishloq aholi hududining jamoat markazi aholining ijtimoiy va ishbilarmonlik faoliyati jamlanadigan joy va qishloq tashkil etuvchi bosh element hisoblanib, qishloqning me'moriy-hajmiy kompozitsiyasi va konturini belgilab berishda katta rol o'ynaydi. Jamoat markazi ma'muriy boshqaruv, savdo-maishiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa funktsiyalarni bajaradi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jamoat markazlarini loyihalashda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak ekan:

- markazning kompozitsion tizimi uzviy bog'lanishga ega bo'lishiga;
- xizmat ko'rsatishning qulay va oqilona tashkil etilishiga;
- markaz funktsional vazifalariga muvofiq aniq zonalashtirilishi, hajmlar talqinidagi asimmetriyalik, shakllar, kontur va landshaft tuzilishidagi uyg'unlikka rioya qilinishiga;
- arxitektura, tabiat va san'at sintezi;

Jamoat markazi hududining funktsional jihatdan oqilona tashkil etilishida uni aniq belgilangan vazifalar (ma'muriy, madaniy-ma'rifiy, savdo-maishiy, ta'lim muassasalari, dam olish va sport) bo'yicha bo'lingan holda yagona rejaviy-hajmli zona yaratilishiga e'tibor qaratish lozim.



Qishloq aholi hududlari jamoat markazlari 1-yoshlar markazi, 2- fermerlar uyushmasi 3- QFY, 4- magazin, oshxona, 5-hovuz fontan bilan birgalikda, 6-turar joy uylari, 7-pochta, telegraf, 8-sport zal.

Jamoat markazining madaniy-tomosha hududi tarkibiga, odatda, qishloq yoshlar markazi, kutubxona, choyxona kabi ob'ektlar kiradi. Faoliyat ko'rsatish xususiyatlari va O'zbekistonning issiq iqlimi bunday muassasalarga kechki salqinda tashrif buyurilishini shartlab beradi. Shu sababdan hudud hajmi ham kunning aynan shu vaqtiga mos bo'lishi kerak: uning maydoni ochiq xarakterga ega bo'lib, imkon qadar suvli yuza (hovuz, favvora va hk.) tashkil qilinishi lozim, shoxlari yoyilgan daraxtlar bo'lmasligi darkor, kechki salqinni saqlashi va yaxshi shamollatilishi, yetarli darajada chiroqlar va yoritiladigan reklamaga ega bo'lishi lozim bo'lib bu hudud qishloq tuzilmasida ustuvor mavqega ega bo'lishi zarur.

Ma'muriy hudud qishloq fuqarolar yig'ini ma'muriyati binosi, agrofirma birlashmasining boshqaruvi, aloqa bo'limi, omonat kassasi, ATS binolaridan tarkib topib, kundalik mehnat faoliyatining markazi sifatida asosan ertalab va kunduzi ishlaydi. U shoxlari keng daraxtlar, bostirma va galereyalar yordamida quyosh nurlaridan maksimal himoyalangan bo'lishi zarur. Undan tashqari, ma'muriy hududda qulay transport kirish yo'li, avtomobil turargohi tashkil etilib, bu hudud ishlab chiqarish hududi bilan qulay bog'langan bo'lishi lozim.

Savdo-maishiy hudud tarkibiga oziq-ovqat va sanoat-xo'jalik mollari do'konlari, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari, umumiy ovqatlanish korxonalari (oshxona, kafe va hk.) kiradi. Bu hududga odamlar asosan ertalab va kunduzi tashrif buyurishadi, shuning uchun unga qo'yiladigan talablar ma'muriy zonadagi kabi bo'ladi.

Memorial hudud jamoat markazida ham, park yoki qishloqning bosh ko'chasidagi uchastkalarining birida joylashtirilishi mumkin. Qaerda bo'lishidan qat'iy nazar bu hudud va qishloq ansambli o'rtasida kompozitsion bog'liqlik bo'lishi zarur.

O'zbekistonning har bir mintaqasida qishloq hududlarining jamoat markazlari joylashtirilishida, ularning funktsional-rejali va me'moriy-hajmiy tashkil etilishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Jamoat markazlari tuzilmasi va tarkibini manzilgoh katta-kichikligi, xo'jalik va tumanga xizmat ko'rsatish tizimidagi uning vazifasi hamda manzilgohni rejalashtirish tuzilmasi xususiyatlariga muvofiq ravishda aniqlash joiz. Rejada chizilgan yo'qismlarga bo'lib yuborilgan shaklga ega manzilgoh xizmat ko'rsatishning qo'shimcha markazlarini oldindan mo'ljallab qo'yishga to'g'ri keladi.

Yiriklashgan ko'rsatkichlar uchun jamoat markazlarini (parklar va tekis yerdagi sport inshootlarini hisobga olmaganda) 8-12 m²/odam hisobidan kelib chiqib belgilash joiz bo'ladi (katta ko'rsatkichlar manzilgohlar uchun).

Qishloq hududi har qanday holatda ham shahar hududidan kichik bo'ladi va bu hol uning markazigacha piyodalarning bemalol qatnovini ta'minlaydi. Shuning uchun ham qishloqlarda monotsentrik, ya'ni bir markazli tizim qo'llaniladi. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari yagona jamoat markazida joylashadi. Ayrim hollarda maktab binosi ham jamoat markazi tarkibiga kirishi mumkin. Bu katta yoshdagi aholining kechki vaqt maktabning jamoat xonalari, sport zali va sport maydonchalaridan foydalanishiga imkon beradi.

Qishloq aholi punktlari - jamoat markazlarning o'z aholisi soni bo'yicha tipologik farqlanishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yagona nomenklatura asosida mahalliy xizmat ko'rsatish tizimlarining markazlari bo'lgan aholi punktlarida madaniy-maishiy va xizmat ko'rsatish muassasalari ob'ektlarini kompleks rivojlantirishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xizmat ko'rsatish muassasalarining funktsional munosabatlarini o'rganish asosiy madaniy-maishiy muassasalarni ularning binolarining alohida guruhlarini birgalikda ishlatish asosida kengaytirilgan xizmat ko'rsatish majmualariga birlashtirish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X. M. Ubaydullaev, M.M. Inag'omova «Turar joy va jamoat binolari tipologik asoslari» T. 2009 g.
2. O.K. Gurulyov Arxitektura jilyx i obshchestvennyx zdaniy dlya sela. M. 1988 .
3. Sh.R. Mirzaev Me'morchilik. Toshkent. 2010 y.
4. Mirzaev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, TAQI, 2000.
5. Ismoilov T., Bayjanov A.R., Shahar va qishloqlardagi aholi punktlari loyihalarini tuzish va qurish asoslari.
6. ShNQ 2.07.01-03* Shaxarsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. T. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. 2009
7. ShNK 2.07.04-06 «Qishloqxo'jaligi korxonalari hududlarini me'moriy rejalashtirish va tashkil qilish» O'zbekiston Respublikasi «Davraxitektqurilish» qo'mitasi - Toshkent, 2006 y.